



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

GLOBALLASHUV VA YOSHLAR TARBIYASI

*Xujamov M.E. – Fan va texnologiyalar
universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchisi
E-mail: xujamova2023@gmail.com*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va yoshlar tarbiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, globallashuv jarayonining yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni borasidagi fikrlar yoritilgan.
Kalit so'zlar: ommaviy madaniyat, qadriyat, individualizm, egotsentrizm, globallashuv.*

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Эта статья содержит информацию о глобализации и образовании молодежи, а также подчеркивает роль глобализации в образовании молодого поколения.

Ключевые слова: популярная культура, ценности, индивидуализм, эгоцентризм, глобализация.

GLOBALIZATION AND EDUCATION OF YOUTH

Annotation. This article contains information on globalization and youth education, and also emphasizes the role of globalization in the education of the younger generation.

Key words: popular culture, values, individualism, egocentrism, globalizatio.

KIRISH

Xalqaro globalashuv insoniyat, mamlakatlar hayotining borgan sari yangi–yangi sohalarini egallab, uning natijasida hozirgi davrga qadar bo'lgan xalqaro tartibot va qadriyatlar yangi ma'no va mazmun bilan to'lib bormoqda. Bu o'rinda xalqaro globallashuv bashariyatning eng asosiy qadriyatlaridan biri bo'lmish inson qadriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.[1] Keng miqyosdagi globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi davrda muayyan mamlakatni zabt etish, biror xalqni bo'ysundirish vositalari tubdan o'zgarib bormoqda. Avvallari bunday maqsadlarga erishish uchun qanchadan - qancha qurol-aslahalar, qimmatbaho texnika, minglab askarlar va ancha-muncha vaqt ham kerak bo'lar edi. Hozirda esa biror mamlakat yoki xalqni bo'ysundirish uchun

ommaviy axborat vositalarining o'zigina kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo'ravonliklar axborot orqali ta'sir qilish, odamlarni biror bir g'oyaga ishontirish, ongini boshqarish texnologiyalariga o'rin bo'shatib berdi. Ana shunday zamonaviy keng qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri - ommaviy madaniyatdir. "Ommaviy madaniyat" tushunchasi dastlab g'arbda o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan bo'lib, uning zamirida imperialistik maqsad, mayda millatlarni yirik gegemon davlatlar tarkibiga qo'shib olish va ularning madaniyatiga ta'sir o'tkazish orqali ularni hududini egallash ko'zda tutilgan. [2]

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining quyidagi fikrlari e'tiborni tortadi: Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzini ma'naviy negizlariga bepsandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. [3]

Mutaxassislar "ommaviy madaniyat"ni kishi ijtimoiy muammolaridan, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg'itishga qaratilganligini qayd etishadi. "Ommaviy madaniyat"da o'ta sodda, siyqa qarashlar yangilik, badiiy estetik kashfiyot sifatida taqdim etiladi.[4] Haqiqatdan ham hozirgi kunda "ommaviy madaniyat" ni targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar teleekrandan keng o'rin olishga intilmoqda. Televideniya esa hammaga ma'lumki, bugun nafaqat ommaviy axborotni tarqatish vositasi, balki u insonlarning ijtimoiy ongi va estetik didini shakllantiradi. Bundan tashqari kishilarda duch kelayotgan ijtimoiy muammolarni "yechishga" yordam beradi. U kishilarni hayot tashvishlaridan, aniqrog'i ijtimoiy muammolardan chalg'itadi, ularni o'y-xayolini yengil- yelpi, siyqa syujetlarga qurilgan dasturlari, ko'rsatuvlari bilan band qilib qo'yadi. Masalan, kishi qanchalik qashshoq bo'lsa, televideniya shunchalik ko'proq bog'lanadi, hayotiy muammolarni televidenie orqali hal etishga moyil bo'ladi. [5]

Haqiqatan esa bu “ommaviy madaniyat” haqiqatda keng ommaniki, hamma xalqlar madaniyati va ma’naviyatini rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil bo’lmasdan, balki o’taketgan madaniyatsizlik, ma’naviyatsizlik, axloqsizlik, jaholatparastlikdan o’zga narsa emas. “Ommaviy madaniyat” nafaqat Sharq madaniyatini, balki o’zi paydo bo’lgan G’arb uyg’onish madaniyatini ham inkor etadi. Masalan, umumbashariyat madaniyatida munosib o’rin tutgan,

G’arb uyg’onish davri namoyondalaridan Leanardo da Vinchining “Monaliza” (Jakonda), Betxovenning “To’qqizinchi simfoniya” asarlari, Salvador Dali va boshqalarning asarlarini ommaviy madaniyat namoyondalari bunday asarlarni bizga keragi yo’q, hech qanday foyda keltirmaydi deya tanqid qilmoqda.

“Ommaviy madaniyat”ni yoshlarning turmush tarziga kirib borishini xatarli tomoni nimada? Uning umuman jamiyat uchun zarari nimalarda namoyon bo’ladi? Aslida, ommaviy madaniyat barcha ommaning madaniyati bo’lib qolmasdan balki, ibtidoiy jamoa tuzumiga qaytish, yovvoyi hayotni qo’msash kabidir. Qanday millatga xosligini, qaysi tilda so’zlashishini, o’z millatiga xos an’ana va qadriyatlarni, aql-zakovat, farosat, ma’naviyat nimaligini unutib, “manqurt”ga aylanishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Globalashuv bilan bog’liq “ommaviy madaniyat”, ommaviy ishlab chiqarish, “ko’ngil ochish industriyasi” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo’ljallangan, madaniyatning sayqallashtirilgan namunalari ko’rinishidagi salbiy hodisa sifatida namoyon bo’lmoqda va uni amalda olomon madaniyati deb ta’riflasak to’g’ri keladi.[6] “Ommaviy madaniyat” tub mohiyatiga ko’ra milliy madaniyatlar kushandasidir. “Ommaviy madaniyat”ni namoyon bo’lish shaklari xam turlicha bo’lib misol tariqasida: Kitch, [7] Komiks, [8] Starizm [9] larni ko’rsatish mumkin.

Odamlar qalbini egallab, zabt etib borayotgan “ommaviy madaniyat” turli yo’llar ayniqsa, musiqa vositasi orqali ayrim yoshlar ongi va tafakkuriga asta-sekinlik bilan singdirib borilayotganligi tashvishli holga aylanib qolmoqda. Ma’lumotlarga ko’ra,

o'tgan asrning 50 - yillarida "inson erkinligi" sifatida paydo bo'lgan rok va rep yo'nalishidagi musiqa hamda qo'shiqlarning tarixi qadimiy Afrika xalqlarining ovga chiqish marosimiga borib taqaladi. Bu yo'nalishdagi kuy va qo'shiqlarni ommalashtirish esa yoshlarning ongini zaharlab, ular orasida an'anaviy buzuvchilik va ruhiy qashshoqlik "epidemiya"ni targ'ib qilishga qaratilgan edi. Bu sa'y-harakatlar natijasida ko'plab G'arb yoshlari rok va repning qurboniga aylanib, "hamma narsa mumkin, hoxlagancha yasha!" qabilidagi aqidani shiorga aylantirishdi.[10] Natijada esa hozir g'arb matbuotida keng qo'llanilayotgan tushuncha ya'ni: "yo'qotilgan avlod" shakllanishiga olib keldi.

G'arb madaniyatidan bir necha asr avval paydo bo'lgan, ta'kidlash lozim bo'lsa G'arb uyg'onish davri mutafakkirlari ibrat olgan, o'rgangan, ko'hna Sharq madaniyatiga, xususan milliy madaniyatimizga rahna solayotgan bunday quzg'unlarni "ommaviy madaniyat" tarqatuvchilar emas, balki "ommaviy madaniyat"sizlar deya bemalol atashimiz mumkin. Bizning yurtimizda Sharq uyg'onish madaniyati namoyondalari: Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Motrudiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'beklar o'sib ulg'aygan, [11] ijod qilgan yurtda, ularning asarlaridan tarbiya topgan, yuksalgan, ularni ruhi bilan kamol topayotgan yoshlarimizga, o'zining kimligini bilmaydigan, nimani targ'ib qilayotganligini tushunmaydiganlarni madaniyatini nima keragi bor?! Ularning bo'lmag'ur madaniyati asossiz, yovuz maqsadlarni ko'zlab targ'ib etilayotganligini, biz pedagog – ustozlar talaba - yoshlarimizning ongu shuuriga ko'hna va mukammal sharqona madaniyatni tushuntirish orqali amalga oshirishimiz lozim.

Rad etib bo'lmaydigan tarixiy haqiqatlarni unutmaslik kerakki, ayni kunda yoshlarimizni o'zini omma madaniyati bilan zaharlashga urinayotgan G'arb madaniyati aslida, IX-XII asrlarda O'rta Osiyo renesansi ta'sirida g'arbda ilk universitetlar paydo bo'lganligini va hattoki dastlab Yevropa universitetlarida Sharq allomalari saboq berganligi, ularda dars jarayonlarida tahliliy yondashuv (analitika) usullari ham aynan Sharq olimlaridan o'zlashtirishganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi.[12]

“Ommaviy madaniyat” namoyondalarining dasturiy maqsadi shundaki, ular insonni ma’naviy dunyosini emas, maishiy iste’mol buyumlarini e’zozlaydi va ularni keng ommalashtirishga intiladi. Bunda albatta butun yer yuzini o’rgimchak to’ridek egallab olgan – Internetdan ham keng foydalanishmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mutaxassislar fikricha, XXI asr tarixga “Axborot asri” sifatida kirdi. Bu holatni global tarmoq internetning jadal rivojlanishi, uning imkoniyatlaridan jamiyatning barcha sohalarida – boshqaruv, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ta’lim sohalarida unumli foydalanilayotganligi bilan izohlash mumkin.[13] Bu jarayon ma’lumotlarni tez tarqatish imkonini berib, ish faoliyat samaradorligini oshirishda ijobiy rol o’ynaydi. Shu bilan birga uning salbiy tomonlari ham borligini unutmaslik lozim. Respublikamizda insonlarni turli qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o’zini himoya qilishi lozim. Buning uchun eng avvalo reklama va ommaviy axborot to’g’risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat’iy bajarilishi kerak.

Mamlakatimizda va yoshlarimiz orasida bunday aqidaparastlarning bo’lmag’ur qarashlarining yoyilishiga qarshi har bir inson yosh-u qari jiddiy e’tibor va kuchli ma’suliyat bilan kurashishi kerak. Buning uchun, eng avvalo, ota-ona, mahalla, maktab, oliy va o’rta ta’lim muassasalari, eng birinchi navbatda, yoshlarimizga ilm olish, dunyoga chiqish, bor salohiyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratilganligini tushuntirish zarur.

Yana, milliy qadriyatlarimizni qanchalik yuksak ekanligini, kerak bo’lsa, g’arb madaniyati sharq madaniyatidan oziqlanib shakllanganligini asosli manba va ko’rgazmali vositalardan keng foydalagan holda bot-bot takrorlash va milliy urf-odat, an’analarimizni naqadar boy ekanligini, dunyoda hech bir xalq o’zbek xalqichalik boy ma’naviy merosga ega emasligini muzey va tarixiy yodgorliklarga olib borish va

tushuntirish orqali g'oyaviy imunitetini mustahkamlash vositasida yoshlarni yuzaki yengil yelpi madaniyatlarga qarshi qurollantirish kerak.

Ta'kidlash joizki, "xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyoti sa'natining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi g'arbning muammosi sifatida baholayotgan "ommaviy madaniyat" ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shunchalik foydalidir. Bunday xurujdan himoya o'rnida, milliy ma'naviyatimizni shakllantiruvchi milliy kompyuter o'yinlarini, multfilmlarni yaratishimiz, milliy qadriyatlarimiz aks etgan, yoshlarni o'ziga jalb qila oladigan badiiy asarlar yaratish, milliy musiqa, qo'shiq matnlariga e'tibor berish, milliy ma'naviyatimizni aks ettiruvchi rasmlarni internet saytlari orqali ko'proq reklama qilish kerak. Shu bilan birga yoshlarimiz qiziqayotgan o'sha "pop" janriga teng keladigan, biroq milliylik bilan sug'orilgan, milliy ma'naviyatimizga mos keladigan kerak bo'lsa, uni mustahkamlaydigan yangi janr yaratish kerak. Buning uchun bizda yetarli bilim, imkoniyatlar mavjuddir, faqat barchamizda xohish, vatanparvarlik, irodalilik, kelajak avlod oldidagi javobgarlik burchini unutmaslik hissi jo'sh urib tursa bas, bu muammoning oldini olsa bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu boisdan ham, bugun biz yosh avlod tarbiyasiga ertangi kun vorislari sifatida jiddiy e'tibor berish kerak. Yoshligidan oilada sog'lom moddiy-ma'naviy turmush tarzini yaratib berish, ularning imkoniyatlarini orzu-havaslarini yaxshilik va ezgulik uchun xizmat qilishga yo'naltirish lozim. Ertangi kun qanday bo'lishi bizga, biz ta'lim-tarbiya berayotgan yoshlarga bog'liq. Bu oliy haqiqatni hech kim, ayniqsa, biz pedagog - ustozlar zinhor unutishga haqqimiz yo'q.

Qolaversa, jahon hamjamiyatida o'zining erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari bilan munosib o'rin egallab, ta'lim sohasida erishgan yutuqlari e'tirof etilayotgan vatanimiz O'zbekistonga va uning madaniyatiga qiziqish kundan-kunga ortib

bormoqda. Buning isbotini ko'plab horijiy mamlakatlarda o'zbek tilini o'rganishga e'tiborni ortayotganida, o'zbekiston madaniyati kunlari doirasida o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlarda ko'rish mumkin. Buning yana bir yorqin aksini mutafakir Alisher Navoiyning mashhur durdona asari "Lison ut - tayr" asarining 2014 yilda polyak tilida nashr etilganligida ham ko'rish mumkin. [14]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan misollar yana bir bor qanday buyuk ajdodlarga avlod ekanligimizdan dalolat beradi. Shunday ekan, dunyo ahlini lol qoldirgan ajdolarimizni bebaho asarlarini yoshlarimizga o'rgatish, ularni ma'naviyatini boytish har bir vatandoshimizni va ayniqsa, pedagoglarning zimmasidagi turgan eng muhim vazifalardan biri deb qaraymiz.

Adabiyotlar

1. Хусейнова А. Глобализация ва Миграция // Жамият ва бошқарув– Тошкент, 2008. - №2. – Б. 28-29.
2. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. Тошкент, "Патент - Пресс", 2007. – С. 12-15.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Тошкент. Маънавият, 2008. –Б. 117.
4. Қўчқоров В. Миллийлигимизни англаш ва ижтимоий сиёсий жараёнлар. – Тошкент. Академия, 2007. –Б. 117.
5. Жуманиёзов Х.С., Собирова М.А., Нигманова У.В. Глобаллашув асослари. Тошкент. "Наврўз" нашриёти, 2015. – Б. 65.
6. Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Тошкент. Академия, 2008. – Б. 75.
7. Китч - заррача ҳам бадиий эстетик қимматга эга бўлмаган нарс ва буюмларга юксак андоза тусини бериш.
8. Комикс - тагига қисқа матн ёки луқмалар битилган беҳаё расмлар яратиш.
9. Старизм - субъектив эҳтиросларга берилган ҳолда, эстрада актрисалари, актёрлар, спортчилар, теледикторларни илоҳийлаштириш.
10. Мадримов Б. "Оммавий маданият"нинг мусиқавий ниқоби // Дунёқарашлар диалоги: ёшларнинг жамият келажига муносабати мавзусидаги республика илмий – амалий конференцияси материаллари / Тошкент, Адабиёт учқунлари, 2015. – Б.
11. Шамсуддинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. К.1. – Тошкент.: "Шарқ", 2010. – Б. 223 – 278.

12. Бадак А.Н., Войнич И.Э., Волчѣк Н.М. История средних веков. – Минск. : Харвест, 2000.
13. Хўжаниёзова З.О. Глобаллашув жараёнининг ёшлар тарбиясига таъсири // Педагогика. – Тошкент, 2015. - №5. – Б. 32-36.
14. “Лисон ут -тайр” поляк тилида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2014. 21 ноябрь.